

Innovative and effective forms of organizing the educational process in higher education institutions

Mokhinur KUVONDIKOVA¹

Andijan State Pedagogical Institute

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
15 July 2024
Accepted 25 July 2024
Available online
15 August 2024

Keywords:

innovative forms,
training,
blended learning,
practical games.

ABSTRACT

The article examines the use of modern innovative forms of organizing the educational process. The main attention is paid to the analysis of various innovative methods and technologies aimed at improving the quality of education. Their impact on the effectiveness of student learning and achieving higher educational results is discussed. The authors conclude the importance of using innovations in the educational process.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss7/S-pp133-138>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini tashkil etishning innovatsion samarali shakllari

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

innovatsion shakllar,
treninglar,
aralash ta'lim,
amaliy o'yinlar

Maqolada o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy innovatsion shakllaridan foydalanish ko'rib chiqiladi. Asosiy e'tibor ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan turli innovatsion uslub va texnologiyalarni tahlil qilishga qaratilmoqda. Ularning talabalarning bilim olish samaradorligi va oliy ta'lim natijalariga erishishiga ta'siri muhokama qilinadi. Mualliflar ta'lim jarayonida innovatsiyalardan foydalanishning ahamiyati to'g'risida xulosaga kelishadi.

¹ Basic doctoral student, Andijan State Pedagogical Institute

Инновационные и эффективные формы организации образовательного процесса в высших учебных заведениях

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

инновационные формы, обучение, смешанное обучение, практические игры.

В статье рассматривается использование современных инновационных форм организации образовательного процесса. Основное внимание уделяется анализу различных инновационных методик и технологий, направленных на повышение качества образования. Обсуждается их влияние на эффективность обучения студентов и достижения более высоких образовательных результатов. Авторы приходят к выводу о важности применения инноваций в образовательном процессе.

Zamonaviy sharoitda tinglovchilarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda. Ayni o'rinda ta'limning innovatsion xarakterga ega ushbu shakllari to'g'risida so'z yuritiladi.

I. Trening – (ingliz tilidan training-train –o'qitmoq, tarbiyalamoq) interfaol mashg'ulotlarni amalga oshirishning asosiy shakli bo'lib, u o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish, mashqlar davomida o'zlashtirish, muloqot almashish imkonini beruvchi tashkiliy tadbir hisoblanadi.

Trening bu nafaqat ta'lim oluvchilarda shaxslararo o'zaro hamkorlikning samarali ko'nikmasini shakllantirishga balki, mutaxassis kasbiy kompetentligining umumiy darajasini oshirishga yo'naltiriladi. Trening mobaynida o'qituvchilar nazariy ma'lumotlarni o'zlashtirish bilan birga, ularda bilish, emotsional va xulq-atvor ko'nikmalari rivojlanib boradi. Tahsil oluvchi faoliyatiga mo'ljallangan ta'lim shakli bo'lib, nazariy ma'lumotlarni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirilishini ta'minlaydi. U ta'lim beruvchi tomonidan o'qitishni emas, balki tahsil oluvchi tomonidan mustaqil va faol o'rganishni ko'zda tutadi.

Treninglar o'rganilishi lozim bo'lgan nazariy g'oya va fikrlarni amaliy ish hamda mashqlar davomida o'zlashtirish imkoniyatini beradi va qatnashchilardagi o'zaro hamkorlikni, samarali muloqot ko'nikmasini shakllantirishga yo'naltiriladi. Har qanday trening quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

1. Izyuminka (joziba – qatnashchilar bilan ishlashning o'ziga hos ajoyib tomoni) qatnashchilarning treningga qiziqishini uyg'otish uchun qisqa bahs boshlash, savollar berish, qatnashchilar fikrini chalg'ituvchi (provakatsion) ta'kidlarni ilgari surish yoki qandaydir faoliyat turini faraz qilish. O'quv mashg'uloti qatnashchilarining dastlabki bilimlari va ularning hayotiy tajribalarini bog'lashga harakat qilish. Trening ahamiyati nimadan iborat ekanligi sabablarini tushuntirish. Odatda trening qatnashchilari birinchi mashg'ulotda o'zini noqulay sezishi, Sizga nisbatan ishonchsizlik holatlari kuzatiladi. Unutmang, Sizning har bir harakatingiz va e'tiboringiz qatnashchilar ishonchini qozonishigizga asos bo'ladi.

2. Qatnashchilar uchun natijalarni ta'kidlash. Qatnashchilarga treningdan qanday maqsad kutilayotganini auditoriyaga tushuntirish. Qatnashchilar trening natijasida: «Bu

treningdan keyin nimalarni bilishim va nimalarni qilishim lozim?» degan savolga javob berishlari kerak.

3. Trenerning hissasi. Trening uchun zarur dastlabki ma'lumotlar, zarur bilimlar (matn, ma'ruza, hujjatlar, o'qish) va biror faoliyat turini o'tkazish uchun fan mazmunini namoyish qilish.

4. Interfaol strategiya – treningning yuragidir. Interfaol uslubiyotda foydalanadigan ish tartibini qisqacha bayon qilish. Interfaol uslub-bu jamoaviy muhokamani tashkil etish, fikrlarni erkin aytish, muhokama, tahlil va faoliyatni baholashdir. Umuman treningdagi faoliyatning ushbu turida qatnashishning barcha qadamlarini chizib chiqish. Guruxda ishlash uchun aniq va qisqa tushuntirishlar olib borish. Qatnashchilar tushunganlik darajasini muntazam nazorat qilib borish. Treningni yakunlashga vaqt yetishi uchun, uning har bir qismini diqqat bilan tashkil qilish. Bu yerda treningni o'tkazish uchun mo'ljallangan savollar muhim ahamiyatga egaligini e'tibordan chetda qoldirmaslik. Trener mashqlarni qatnashchilar tomonidan bajarish jarayonida topshiriqlarni to'g'ri bajarishini kuzatib borishi lozim.

5. Debrifing (xulosa) baholash. Qatnashchilar o'zlari yod olgan va o'zlashtirgan bilim(yo'nalish)lari bo'yicha xulosa qiladilar, o'zlashtirgan ma'lumotlar va malakalarni boshqa holatlarda, talabalar bilan ishlashda qo'llashni muhokama qiladilar. Bu – treningni baholash qismidan iborat bo'lib, bunda "Qatnashchilar nimani o'rgandilar?" savoliga javob olinadi. Trening davomida qatnashchilar o'rgangan yoki ko'rsatgan bilimlari natijalar bilan mos kelishini tekshiriladi.

Treninglar an'anaviy o'quv mashg'ulotlaridan quyidagi jihatlari bilan farqlanadi:

- bunda ta'lim oluvchilar yoki ishtirokchilar guruhi yoshi va bilim jihatdan bir xil bo'lmaydi;
- trening jarayonining asosiy maqsadi ishtirokchilarni o'zaro muloqotga chorlash va faollashtirishdan iborat etib belgilanadi;
- o'qitish va tarbiyalashning shakl, metod va vositalari trening maqsadidan kelib chiqib tanlanadi va individuallashtiriladi. 9Yaxshi trening har doim trener va qatnashchilarning o'zaro hamkorlikdagi harakatlariga asoslanadi.

Treningni o'tkazish texnikasi. Qatnashchilar bilan noverbal (so'zsiz, mimika, pantomimika, qarash va hokazo) aloqa o'rnatish: Gapirayotganingizda har bir tinglovchini ko'z ostingizda tuting. Hammaga bir xil e'tibor bering, Siz guruxdagi ba'zi odamlarga xayrixoh bo'lib qolmang. Xonada guruhning diqqatini buzmasdan harakat qiling (tez-tez va maqsadsiz yurishlardan qoching, shuningdek, guruhga o'zingiz ko'rinmaydigan joydan turib gapiring).

Qatnashchilarning bosh qimirlatishi, tabbassumi va hatti harakatlari nimanidir aytmoqchi ekanligiga hohishi borligiga e'tibor bering. Guruh qarshisida turing. O'qish va trening boshlanganda o'tirmang (xotirjam, shu bilan birga maqsadli va qat'iy bo'ling). Verbal (nutqiy) aloqa o'rnatish:

- Savollarni shunday tuzingki, qatnashchilar gapirsin. Bunda Sizga ochiq savollar yordam beradi: "Siz bu haqda nima deysiz?", "Nimaga?", "Qanday? Agar? va hokazo. Agar tinglovchi "Ha", "Yo'q" deb javob bersa, "Nega shunday gapiryapsiz?" deb so'rang.
- O'z ovozingiz ohangiga e'tibor bering. Ayniqsa, qatnashchilar ichida pedagogik ma'lumoti bo'lmagan kishilar bo'lsa, u holda asta-sekin va aniq gapiring.
- Qatnashchilarni o'zingizdan ko'proq gapirishga undang. O'zingiz va qatnashchilarning so'zga chiqish vaqtlarini hisobga olib boring.

- Hamma savollarga faqat o'zingiz javob bermang. Qatnashchilar birbirining savollariga javob berishi mumkinligini unutmang. Bu Sizning zaxirangizni ko'paytiradi. "Kimdir bu savolga javob bera oladimi?" deb so'rang.

- Qatnashchilarning fikrini o'z so'zingiz bilan takrorlab, bir oz o'zgartirib ifoda qiling. Bu Sizga gapiruvchini tushunishingizni yetarli darajada nazorat qilishga imkoniyat beradi va muhokama savollarini tushunishni kuchaytiradi.

- Bahs umumlashtirilgan natijalari mohiyatini har bir ishtirokchi to'g'ri tushunganiga va to'g'ri yo'nalishda ketayotganligiga amin bo'ling. Bu qarama-qarshiliklarni ko'rish va xulosa chiqarish uchun qulay fursatdir.

- Shaxsiy tajribangiz mazkur bahsga mos kelsa, qatnashchilar fikrlarini mustahkamlang. "Bu menga o'tgan yilgi voqeani eslatadi" – deyishingiz mumkin. Treninglarni samarali amalga oshirishda o'qitish metodlarining tanlanishiga katta ahamiyat beriladi.

II. Amaliy o'yinlar. Dastlab "o'yin" tushunchasining mohiyatini anglab olish talab etiladi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim amaliyotida amaliy-innovatsion xarakterga ega o'yinlardan samarali foydalanilmoqda.

Ta'lim amaliyotida qo'llaniladigan amaliy o'yinlar o'z-o'zidan didaktik xususiyat kasb etadi, shu sababli ular ko'p holatlarda "didaktik o'yinlar" deb yuritiladi. Kishilik tarixiy taraqqiyotining barcha davrlarida ham o'yin sub'ekt faoliyatining eng birinchi va muhim turi sifatida tan olingan. Binobarin, shaxs faoliyatining muhim turlari – mehnat, o'qish bilan birga o'yin ham uning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'yinlar vositasida katta avlod tomonidan to'plangan hayotiy tajriba, o'zlashtirilgan bilim, turmush tarzi va ijtimoiy munosabat asoslari, madaniy qadriyatlar yosh avlodga izchil uzatib kelingan. O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud xususiyatlari tufayli o'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. "Maktabgacha yoshdagi bola o'yin faoliyatida o'qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg'aygan sari o'yinning roli o'yin – kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatsiyalash (ko'chirish, taqlid qilish) asosida o'zlashtirish shakli sanaladi. Amaliy o'yinlar – muayyan amaliy harakatlarning tashkil etilishini imitatsiyalash imkoniyatini beradigan o'yinlar biroz kamayib boradi. O'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi"

Agarda jismoniy xatti-harakatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan o'yinlar bolalarda chaqqonlik, epcillik, chidamlilik, qat'iylikni tarbiyalasa, intellektual, konstruksiyali o'yinlar ularni o'ylashga, fikrlashga, mantiqiy tafakkur yuritishga o'rgatadi. "O'yin inson hayotining hayotining har bir davri uchun uning ruhiy rivojlanishini belgilovchi yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. Faqat o'yinda va o'yin orqali bola voqelikni, shu jumladan, kishilar ijtimoiy munosabatlarini, hulqini, xatti-harakatlarini bilib oladi".

Tarixiy taraqqiyot jarayonida o'yin nafaqat bolalar, balki kattalar hayotidan ham alohida o'rin egallashga muvaffaq bo'lindi. Zamonaviy sharoitda intellektual, kompyuter, iqtisodiy, harbiy, kasbiy, sport va maishiy hodiq chiqarishga ko'maklashadigan o'yin modellari ham kattalar orasida keng ommalashgan.

III. Blended learning (aralash o'qitish) zamonaviy ta'limning nisbatan yangi, biroq, tobora ommalashib borayotgan shakli sanaladi. Ushbu shakldagi o'qitish jarayonida tinglovchi mustaqil ta'lim oladi, ammo ayni vaqtda unga guruh va o'qituvchi tomonidan yordam ko'rsatiladi. Guruhli mashg'ulotlar davomida "blended learning" (aralash o'qitish)ning

qo'llanilishi tufayli har bir tinglovchi o'quv materiallarini o'zlashtirish borasida o'zida ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlarni namoyon etgan holda muloqot ko'nikmalarini o'zlashtirib boradi, o'tilgan materiallarni takrorlaydi va yangi mavzuni o'rganishga tayyorlanadi.

Blended learning (aralash o'qitish) ko'p holatlarda topshiriqlarga tayanadi va asosiy, muhim ma'lumotlar negizida tashkil etiladi, qo'shimcha materiallar esa tinglovchiga onlayn platforma orqali uzatib beriladi. Tinglovchi mustaqil ta'lim olar ekan, guruhning boshqa a'zolari bilan onlayn rejimda tashkil etilayotgan muhokamada ishtirok etish orqali hamkorlik qiladi.

Auditoriyada va onlayn rejimda tashkil etilayotgan mashg'ulotlar vaqt miqdori bo'yicha o'zaro mos kelishi turlicha o'zgarib turishi mumkin. Ta'limning turli bosqichlarida masofaviy va mustaqil ta'lim samarali ravishda qorishtirib yuboriladi.

Aralash ta'limda o'qituvchi rahbarligida tashkil etiladigan mashg'ulotlar uchun soatlar hajmi kamaytiriladi degan faraz noto'g'ridir. Vlended learning(aralash o'qitish)ning muvaffaqiyati ta'lim vositalarining to'g'ri tanlanishi bilan belgilanadi. Bu ta'lim shaklining afzalligi shundaki, tinglovchining o'zi o'quv materialini o'zlashtirish tezligi va ta'lim jarayonining intensivligini o'zi belgilaydi.

Aralash o'qitish o'zida quyidagi Yevropa ta'limi modellarini jamlaydi:

1. Masofaviy ta'lim (distance learning).
2. Auditoriya ta'limi (face-to face learning). Blended learning (aralash o'qitish) – onlayn o'quv materiallari hamda o'qituvchi rahbarligida guruhda ta'lim olishga asoslangan o'qitish shakli

3. Internet ta'limi (online learning).

4. Uzlaksiz ta'lim (lifelong learning) Bu shakldagi ta'lim quyidagi shaxslar uchun nihoyatda ahamiyatlidir: ish vaqti qat'iy tartibga solinmagan sohalarning xodimlari; ishlab chiqarish ajralmagan holda ta'lim olishlari lozim bo'lgan korxona, tashkilot va firmalarning xodimlari; "jonli muloqotga asoslangan ta'lim" muhitida o'qishni xohlovchi shaxslar uchun. Aralash ta'limning tarkibiy tuzilmasi ham o'zgaruvchan hisoblanadi. Ayni vaqtda xorijiy mamlakatlarda aralash ta'limning o'ndan ortiq shakllari mavjud.

O'qitish amaliyotida aralash ta'lim o'z "o'lcham" (ko'rsatkich)lariga ega. Ular quyidagilardir:

– malakali kadrlar guruhining shakllantirilganligi; – mahorat darslariga asoslangan ta'lim;

– yuqori darajadagi yutuqlari kafolatlovchi muhit;

– talabalarning o'z shaxsiy ta'limiy yutuqlari uchun javobgarligi OTMda blended learning (aralash o'qitish) quyidagilarga asoslanadi:

– Onlayn ma'ruza mashg'ulotlari.

– Onlan amaliy mashg'ulotlar.

– Internet tarmog'ida muhokama qilinadigan loyiha va guruh ishlari.

– Onlayn rejimda tashkil etiladigan laboratoriya mashg'ulotlari.

– Onlayn rejimda mustaqil topshiriladigan test.

– Onlayn rejimda tashkil etiladigan maslahat

IV. Mahorat darslari zamonaviy ta'limning yana bir tobora ommalashayotgan shakli sanaladi. Bu shakldagi o'qitish bir martalik sanaladi. Mahorat darslarini tashkil etishda ko'p yillik ish tajribasiga ega, shuningdek, samarali metodika yoki texnologiyaga ega innovator pedagoglarning kasbiy malakalari ochiq tarzda, interfaol muloqot asosida hamkasb pedagoglar hamda tinglovchilarga namoyish etiladi.

Malakali pedagoglar tomonidan mahorat darslarini tashkil etishda quyidagi vazifalar bajariladi:

- muayyan muammo bo'yicha tajribali, mahoratli pedagogning ish tajribasining ommalashtirilishi;
- tajribali, mahoratli pedagog tomonidan izchil harakatlarning to'g'ridan to'g'ri va izohli namoyish etish orqali pedagogik faoliyatda samarali shakl, metod va vositalardan foydalanish tartibining ko'rsatilishi;
- malakali, mahorali pedagogning metodik yondashuvlarini belgilangan muammoni hal etish usullari bilan o'zaro muvofiqlashtirish;
- mahorali pedagog tomonidan o'zining kasbiy malakalarining Mahorat darslari – ochiq tashkil etilib, ilg'or pedagogik tajribalarni targ'ib etishga yo'naltirilgan samarali o'qitish shakli shogird (talaba)larga o'rgatilishi; – tinglovchilarning kasbiy takomillashuvlari uchun mahoratli pedagog tomonidan yoram ko'rsatilishi; – pedagog xodimlar o'rtasida innovatsion g'oya, texnologiyalarni ommalashtirish;
- mahorat darslari ishtirokchilari (talabalar)ning kasbiy kompetentliklarini oshirish; – mahorat darslarning har bir ishtirokchisida individual ijodiy pedagogik faoliyat uslubini shakllantirish Mahorat darslarini tashkil etish natijasi sifatida quyidagi mahsulotlar yaratilishi mumkin:
- pedagoglarning ijodiy ishlari mahsuli (dastur, metodik qo'llanma); – mashg'ulotlar uchun tarqatma materiallar;
- pedagogik adabiyot va manbalar kartotekasi; – ta'lim va tarbiyaning yangi shakllarini metodik jihatdan asoslash; – yangi pedagogik texnologiyalarni shakllantirish; – malaka oshirish kurslari, seminarlar, praktikumlarning dasturlari; – ijodiy va ommaviy xarakterdagi tadbirlar Nizomi va b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Тошкент, “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 29 б.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. –47 б.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi qonuni -T.: “O'zbekiston”, 2020 yil 23 sentabr.
4. Тарбия / Ота-оналар ва мураббийлар учун энциклопедия / Тузувчи: М.Н.Аминов. Масъул муҳаррир: А.Мажидов. – Тошкент: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2010. – 432-бет.
5. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. “Case-study” uslubi: Nazariya, amaliyot va tajriba.-T.:Tafakkur qanoti, 2012.-131 b.
6. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2006.
7. Б.М.Дўмонов. Амалий мазмундаги мустақил ишлар – кимёнинг амалий аҳамиятини англаш гаровидир. //“Илмий хабарнома” журналы, Андижон, 2015. – № 1. – Б. 103–105
8. Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технология ва педагогик маҳорат. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2006.
9. Большая психологическая энциклопедия”. – Москва: Эксмо, 2007.